

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI TERMIZ FILIALI**

**AVTOMOBIL YO'LLARIDA QURILISH  
EKOLOGIYASI**

**fanidan**

**USLUBIY KO'RSATMALAR**

**Termiz 2019**

Tuzuvchi: To‘raxonov M.I. “Avtomobil yo‘llarida qurilish ekologiyasi” fanidan uslubiy ko‘rsatmalar. –Toshkent: ToshDTU Termiz filiali, 2019. 52 b.

Mazkur uslubiy ko‘rsatma 5340600-Transport inshootlari ekspluatasiyasi ba 340800 – Avtomobil va aerodromlar ta’lim yo‘nalishida “Avtomobil yo‘llarida qurilish ekologiyasi” fanidan bajariladigan kurs loyihasi ishlari va bitiruv malakaviy ishi hisob-kitob qismini bajarish uchun mo‘ljallangan.

Uslubiy ko‘rsatma avtomobil yo‘llarini va sun’iy inshootlarni qurishda atmosfera ifloslanishini keltirib chiqaruvchi omillarni va unga qarshi ko‘riladigan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ko‘nikmani beradi va amaliy hisob-kitoblarni o‘rgatadi.

*Uslubiy ko‘rsatma Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi*

Taqrizchilar:

Umbarov I. - TerDU t.f.d.  
Xushboqov B. - ToshDTU Termiz filiali t.f.n.

## KIRISH

Insoniyat 21 asrga kirib kelishi bilan yangi, umumbashariy muammolarga duch kela boshladi, inson bilan tabiat o'rtasidagi tafovut yanada kuchaydi, ekologik muammolarning globallashuvi, mintaqaviy ekologik inqirozi Markaziy Osiyoning ekotizimlarini qamrab olmoqda. Milliard yillar davomida tashkil topgan yer xilma-xil bilimlarning manbai hisoblanadi. Yerning, uning ekotizimlarining evolyutsion rivojlanish jaroyonini, tabiatning funksiyalar mexanizmlarini, insonning paydo bo'lishini, uni nimalar kutayotgani va uning shiddat bilan o'sib borayotgan xo'jalik faoliyatini keskin chegaralab qo'yilmasa, qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini o'rganish va uni tartibga solish muhim global masalalarga aylanib bormoqda.

Insonning tabiat bilan munosabatlarining evolyutsion rivojlanishi uchun yuqorida aytilgan ma'lumotlardan keng foydalanmog'i, chuqur ilmiy tadqiqot ishlari olib bormogi kerak bo'ladi va shu asosda inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini, shu jumladan ekologik munosabatlar qonuniyatlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida shunday fikrlarni ilgari surib, «Xalqaro hamjamiyat insonning nafakat yashash huquqi, balki to'laqonli va sog'lom turmush kechirishi uchun zarur mo'tadil atrof-muhit sharoitlariga ham bo'lgan huquqlarining muqaddas va daxlsizligini allaqachonlar e'tirof etgan» deb yozadi.

Prezidentimizning bu fikrlari hozirgi zamon ekologiyasiga va ijtimoiy ekologiyaga naqadar chuqur aniqliklar kiritishini alohida ko'rsatib o'tishga to'g'ri keladi. Hozirgi zamon ekologiyasi tabiiy resurslardan ratsional foydalanish, ayniqsa, yer, suv, o'rmonlar (ekotizimlar elementlari), tabiiy boyliklarni biotik, abiotik va antropogen omillardan saqlash, shu asosda yer tabiatining ekologik funksiyasini amalga oshirishini ta'minlash masalalarining ekologik, huquqiy-iqtisodiy asoslarini yaratishga qaratilgan.

Ushbu muammo jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yanada chuqurroq namoyon bo'lmoqda. Taqdim qilinayotgan ish ekologik fanning asosiy yo'naliishlariga bag'ishlanib, unda hozirgi zamon kategoriylari va tushunchalari apparatidan keng foydalanildi, ayniqsa Markaziy Osiyoning mintaqaviy ekologik muammolari va ularning yechimlari,

global va mintaqaviy o‘zgarishlari hamda olib borilayotgan adaptiv tadbirlarga keng o‘rin berilgan.

## 1 - amaliy ish

### Avtomobil yo‘llarini qurish, ta’mirlash va saqlash texnologik jarayonlarining tabiiy muhitga ta’sirini baholash

Tayyorgarlik ishlari, yer to‘samasini barpo qilish, yo‘l to‘samasini qurish, avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash maqsadida yoki bu texnologik sxema yoki materiallarni qo‘llash imkonini qiyosiy baholash, aniqlash uchun integrallangan ko‘rsatkich ( $R$ )dan foydalanish kerak. U atrof-muhit holatining alohida parametrlarining ahamiyatini e’tiborga olgan holda hisoblanadi:

$$D = \frac{S_1\alpha_1 + S_2\alpha_2 + \dots + S_n\alpha_n + 0,7S_{\text{yñð}}}{\alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_i + 0,7} \quad (1.1)$$

bu yerda  $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_p$  – shu texnologik kompleksni bajarishda alohida parametrlarning atrof-muhitga ta’sirining ahamiyatini hisobga oluvchi koeffitsiyent (1-jadval);

$S_1, S_2, \dots, S_n$  – atrof-muhitga bo‘ladigan ta’sir darajasini baholash (2-jadval);

$S_{est}$  – landshaftni estetik qabul qilishni baholash. Landshaft yaxshilan-  
gan holatda  $S_{est} = 3$ , o‘zgarmagan ko‘rinishda saqlangan holatda  $S_{est} = 2$ ,  
yomonlashgan holatda  $S_{est} = 1$ .

Texnologik jarayonlar va materiallarning atrof-muhitga ko‘rsatadigan ta’siri nuqtayi nazaridan baholash, shuningdek, salbiy ta’sirni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash yo‘llarini ko‘rish, ta’mirlash va saqlashda har bir texnologik jarayon bajarilishi kerak.

Tayyorgarlik ishlari, yer polotnosini barpo qilish, yo‘l to‘samasini qurish, avtomobil yo‘llarini ta’mirlash va saqlash, karyerlar va zaxiralarni ishlash, mineral materiallarni qazish va tashish ishlarini bajarishda atrof muhitga bo‘ladigan ta’sir parametrlari ularga tegishli ahamiyatlilik koeffitsiyentlari 1.1- jadvalda berilgan.

### 1.1- jadval

Baholanadigan parametr	Ishlarni bajarishda ahamiyatlilik koeffitsiyenti alfa(i)					
	Tayyor-garlik ishlari	Yer polotno-sini qurish	Yo'l to'shamasini qurish	Avto-mobil yo'llalarini ta'mirlash	Avtomo-bil yo'llarini saqlash	Karyer-larni ishlash, material-larni qazish va tashish
Eroziya bardoshlilik	0,9	0,9	-	0,8	-	1,0
O'simliklarning holati	1,0	0,9	-	0,8	-	-
Shovqin ta'siri	0,8	0,7	0,8	0,8	-	0,8
Tuproq unumdor qatlamining holati	-	1,0	-	0,5	-	1,0
Atmosferaning chiqindi gazlar bilan ifloslanishi	0,3	0,8	0,8	0,7	0,7	0,8
Atmosferaning chang bilan ifloslanishi	0,5	0,8	0,8	0,9	1,0	0,9
Atmosferaning bog'lovchi materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi	-	-	1,0	1,0	-	-
Atmosferaning parda hosil qiluvchi materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi	-	-	0,7	0,5	-	-
Tabiiy muhitning yaxmalakka qarshi vositalar bilan ifloslanishi	-	-	-	-	1,0	-
Tabiiy muhitning changni yo'qotuvchi vositalar bilan ifloslanishi	-	-	-	-	0,9	-

Yo'llarni qurish, ta'mirlash va saqlash texnologik jarayonlarini bajarishda atrof-muhitga ta'sirining ayrim parametrlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelish darajasi 3 ballik sistema bo'yicha baholanadi. Ayrim texnologik jarayonlarning tabiatni muhofaza qilish

talablariga mos kelishini baholash uchun foydalanadigan parametrlar, shuningdek ularni baholash shartlari 1.2- jadvalda berilgan.

1.2- jadval

№	Baholanadigan parametr	Parametrga yo‘naltiradigan talablar, ballarda baholash-Si uchun		
		1	2	3
1.	Mustahkamlanmagan nishablikning eroziyaga bardoshliligi, mahalliy bardoshlilik zaxirasi koeffitsiyenti qiymatlarida	K>1	K=1	K<1
2.	Inshootlar band qilgan hududdan tashqarida o‘simliklarning holati: o‘simliklarning shikastlanishi, %	0-10	11-30	31-50 va undan ko‘p
3.	Tuproq unumdor qatlaming holati: begona aralashmalar miqdori, %	0-10	11-30	21-30 va undan ko‘p
4.	Atmosferaning chiqindi gazlar bilan ifloslanishi: - ishchi zonaning havodagi SO miqdori, mg/m <sup>3</sup> - aholi yashaydigan joylardagi havoda sutkalik o‘rtacha miqdor, mg/m <sup>3</sup> :	20 dan kam	20	20 dan ko‘p
	SO	1 dan kam	1	1 dan ko‘p
	qurum	0,05 dan kam	0,05	0,05 dan ko‘p
5.	Atmosferaning chang bilan ifloslanishi: Aholi yashaydigan joylardagi havoda sutkalik o‘rtacha miqdor, mg/m <sup>3</sup>	0,15 dan kam	0,15	0,15 dan ko‘p
6.	Shovqin ta’siri: tovush darajasi, dBA:			
	ish zonasi;	85 dan kam	85	85 dan ko‘p
	aholi yashaydigan joylardagi;	60 dan kam	60	60 dan ko‘p
	Qishloq xo‘jaligi hududlari, dam olish va turizm zonalari;	50 dan kam	50	50 dan ko‘p
	sanatoriya -kurort zonalari;	40 dan kam	40	40 dan ko‘p
	Qo‘riqxona va zakazniklar hududlari;	35 dan kam	35	35 dan ko‘p

7.	Atmosferaning bog'lovchi materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi: bog'lovchining turi	Mineral bog'lovchi lar: sement, ohak,kul, shlaklar	Organik bog'lov chilar: bitumlar, bitum emulsiyalar-lari	Qatron, qoramoy, qum
8.	Atmosferaning beton qarovi uchun materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi: material turi	Rulonli materiallar, qum	Bitum emulsiyalarlari EBA-1, EBK-2 lok	Emulsiyalar: PM-86, PM-100A, PM-100AM, etinol
9.	Tabiiy muhitning yaxmalakka qarshi materiallar bilan ifloslanishi *:	Friksion materiallar, fosfatlangan xlorli kalsiy	25%kon sentratsiyali xlorli natriy eritmasi 32%kon sentratsiyali xlorli kalsiy eritmasi	25% yuqori konsentratsiyali xlorli natriy eritmasi 32%-dan konsentratsiyali xlorli kalsiy eritmasi
10.	Tabiiy muhitning changli yo'qotuvchi materiallar bilan ifloslanishi: changni yo'qotuvchi vositalarning turi va konsentratsiyasi*:	Suv, suyuq bitum, bitum emulsiyalari, fosfatlangan xlorli kalsiy	Xom neft, xlorli kalsiy va uning eritmalar	Ishlatilgan moylar, mazut, xlorli natriy

\* Suvni muhofaza qilish hududlarida sanitariya kurort zonalari, qo'riqxona va zakazniklar hududlari orqali yoki ular yaqinidan o'tgan yo'llarda atrof - muhitgata'sir darajasi bo'yicha birinchi guruh ( $S_i = 1$ ) changni yo'qotuvchi va yaxmalakka qarshi materiallr ishlatilmasligi kerak.

U yoki bu texnologik sxema bo'yicha ishlarni bajarish imkoniyati va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish chora-tadbirlarini belgilash integrallangan ko'rsatkich qiymati Rga ko'ra aniqlanadi:

$$R = 2,51 \dots 3,00 - \text{bo'lganda ishlarni bajarishga ruxsat etiladi};$$

$R = 1,51 \dots 2,50$  – ishlarni bajarishga himoyalash chora-tadbirlari va vositalari qo'llangan qoida, “1” deb baholangan ayrim parametrlar bo'yicha ruxsat etiladi;

$R = 1,00 \dots 1,50$  – ishlarni bajarishga, ta'sir darajalarini ruxsat etilgan qiyatlargacha kamaytirishni ta'minlayligan qo'shimcha kompleks chora tadbirlar ishlab chiqilgan sharoitda ruxsat etiladi.

Ishlarni bajarish texnologik sxemalari variantlari va ishlatiladigan materiallarni qiyosiy baholashda atrof-muhitga salbiy ta'sirning davomiyligini hisobga olish kerak. Ishlarni bajarish texnologik sxemalarini va materiallarini tanlashda odatda, atrof-muhitga qisqa muddat ta'sir qilish ma'qul bo'ladi.

Tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelmaydigan texnologik jarayonlarining ta'sir darajasini ruxsat etilgan darajalargacha kamaytirish uchun ham alohida tashkiliy va texnik chora-tadbirlar hamda ularning birikmasi qo'llanilishi lozim, masalan: chang-gazga chidamli daraxt va butalardan iborat himoyalovchi to'siqlar, shovqinli qaytaruvchi va shovqinni yutuvchi ekranlar tozalash inshootlari bo'lgan, oqova suvlarni tutib qoluvchi izolyatsiyalangan sistemalar, bir materialni zaharliligi kamroq bo'lgan boshqa material bilan almashtirish, zararli moddalar tashlamalarini kamaytiruvchi tashkiliy chora-tadbirlar.

Topshiriq:

1. Masalan, sement bilan ishlov berilgan chaqiqtosh ikki qatlamlili asfaltbeton qoplamasidan iborat asosdan tashkil topgan yo'l to'shamasini qurish texnologik jarayoni parametrlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelishi baholangan (integrallangan ko'rsatkich yo'l to'shamasi asosini qurish va asfaltbeton qoplamasini qurish uchun alohida hisoblab chiqiladi).

1.3-jadval bo'yicha baholash uchun ma'lumotlar

Var.	Bog'lovchini ng turi	Beton qarovi uchun materiallar	Konsentratsiya, mg/m <sup>3</sup>			Shovqin darajasi, dBA	Hudud turi
			SO	qurum	chang		
1	Sement	Qum	1,2	0,05	0,17	60	Aholi punkti
2	Bitum	EBA-1 Emulsiya	1	0,08	0,1	70	q/x mulki
3	Qatron	Rulonli materiallar	1,7	0,03	0,05	40	Zakazniklar
4	Ohak	PM-86 Emulsiya	0,8	0,02	0,15	65	Aholi punkti

5	Qoramoy	Etinol	0,9	0,07	0,13	45	Sanitariya zonasi
6	Shlak	Qum	1,2	0,08	0,1	36	zakazniklar
7	Kul	EBA-2Emulsiya	0,9	0,05	0,12	65	q/x mulki
8	Sement	Rulonli materiallar	2	0,02	0,15	55	Aholi punkti
9	Bitum	PM-86 Emulsiya		0,03	0,18	45	Sanitariya zonasi
10	Qatron	Etinol		0,04	0,14	70	Aholi punkti

2. Asfaltbeton qoplamali avtomobil yo‘lini qishda va yozda saqlash texnologik jarayoni parametrlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelishi darajasi baholansin.

#### 1.4-jadval bo‘yicha baholash uchun ma’lumotlar

№	Changni yo‘qotuvchi material	Yaxlaganga qarshi material	Konsentratsiya, mg/m <sup>3</sup>			Shovqin darajasi, dBA	Hudud turi
			SO	Qurum	chang		
11	Suv	SaCl <sub>2</sub> , 36%	1,7	0,06	0,12	60	Aholi punkti
12	Bitum	SaCl <sub>2</sub> , 30%	2	0,08	0,1	70	q/x mulki
13	Xom neft	NaCl, 25%	1	0,05	0,16	40	Zakazniklar
14	SaCl <sub>2</sub>	NaCl, 30%	1,3	0,02	0,15	65	Aholi punkti
15	NaCl	Fosfatirlangan SaCl <sub>2</sub> .	1,3	0,07	0,13	45	Sanitariya zonasi
16	Xom neft	SaCl <sub>2</sub> , 32%	1,2	0,06	0,15	36	zakazniklar
17	SaCl <sub>2</sub>	SaCl <sub>2</sub> , 28%	0,9	0,08	0,13	65	q/x mulki
18	Suv	NaCl, 24%	2	0,05	0,1	55	Aholi punkti
19	Bitum	NaCl, 28%	1,6	0,02	0,16	45	Sanitariya zonasi
20	Mazut	Fosfatirlangan SaCl <sub>2</sub> .	1,3	0,03	0,15	70	Aholi punkti

3. Sementobeton qoplamali avtomobil yo‘lini ta’mirlash texnologik jarayonlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelish darajasi baholansin (variantlar 1- topshiriq bo‘yicha olinsin)

Atmosferaning bog‘lovchi materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi: bog‘lovchi material sifatida sementdan foydalanilgan.

Yo‘l to‘samasini qurishda atrof-muhitga bo‘ladigan ta’sirining ayrim parametrlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelish darajasi quyidagicha baholanadi (1.1 va 1.2 jadvallarga muvofiq):

- atmosferaning bog‘lovchi materiallar va ular asosida materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi “3”, chunki bog‘lovchi material sifatida sementdan foydalanilgan;
- atmosferaning parda hosil qiluvchi materiallar ajralmalari bilan ifloslanishi – “2”, chunki asosning qarovi uchun, masalan bitum emulsiya ishlatilgan;
- atmoferaning chang bilan ifloslanishi – “1”, chunki aholi punktidagi havoda sutkali o‘rtacha konsentratsiya, masalan  $0,16 \text{ mg/m}^3$  dan ko‘p bo‘lgan;
- shovqin ta’siri – “2”, chunki aholi punktida shovqin darajasi, masalan  $60 \text{ dBAni}$  tashkil qilgan.

1.1 va 1.2 - jadvalga muvofiq hisoblab chiqilgan integrallangan ko‘rsatkich qiymati quyidagicha bo‘ladi:

$$R = \frac{1,0 \times 3 + 0,7 \times 2 + 0,8 \times 1 + 0,8 \times 2,0 + 0,8 \times 2}{1,0 + 0,7 + 0,8 + 0,8 + 0,8} = 2,05 \quad (1.2)$$

Yo‘l to‘samasini qurish ishlarini bajarishga “1” deb baholangan ko‘rsatkichlar bo‘yicha himoyalash chora-tadbirlarini qo‘llagan holda ruxsat etiladi (masalan, chaqiq toshli qatlamni taqsimlash va zinchlashda chapishishini yo‘qotishi)

Yo‘l to‘samasining ikki qatlamlili asfaltbeton qoplamasini qurishda atrof - muhitga bo‘ladigan ta’sirining ayrim parametrlarining tabiatni muhofaza qilish talablariga mos kelishi quyidagicha baholandи (1.1 va 1.2-jadvallarga muvofiq):

- atmosferaning chiqindi gazlar bilan ifloslanishi –“2”, chunki aholi punktlaridagi havoda uglerod oksidi va qurumning sutkalik o‘rtacha konsentratsiyasi, masalan 1 va  $0,05 \text{ mg/m}$  ni tashkil qilgan;
- atmosferaning chang bilan ifloslanishi –“3”, chunki aholi punktlaridagi havoda changning sutkalik o‘rtacha konsentratsiyasi, masalan  $0,16 \text{ mg/m}^2$  dan kam;
- shovqin darajasi –“2”, chunki aholi punktidagi shovqin darajasi masalan  $60 \text{ dBAni}$  tashkil qilgan.

1.1 va 1.2-jadvalga muvofiq hisoblab chiqilgan integrallangan ko‘rsatkichning qiymati quyidagicha bo‘ladi:

$$R = \frac{1,0 \times 2 + 1,0 \times 1 + 0,8 \times 2 + 0,8 \times 3 + 0,8 \times 2}{1,0 + 1,0 + 0,8 + 0,8 + 0,8} = 1,95 \quad (1.3)$$

## 2-amaliy ish

### **Avtomobil yo'llari qurilishida atmosfera havosining ifloslanishini baholash**

Avtomobil yo'llarini qurish quyidagi ko'rsatmalardan iborat:

- rejalashtirish va yo'l quyqasini yotqizish;
- beton qurilmasining poydevori;
- tayyor bitum gruntli aralashmaning qurilma poydevori;
- qora shag'al qurilmasining qatlamlili poydevori;
- yirik donali va mayda donali asfaltbeton qurilmasining qoplamasi.

Avtomobil yo'llarining qurilishida texnologik bosqichdan ko'ra ma'lum texnik vositalardan foydalanish kerak. Yo'l qurilish materiallarini tekislash uchun rejalashtirish hamda yer qatlaminini dumalatib, so'ng sug'orishda quyidagi texnik vositalardan foydalanish kerak :

- Avtogreyderlar	1-2d;
- Yo'l roliklari	2-4d;
- Sug'orib yuvadigan mashinalar 6001 hajmli	1d;
- Yuk ortuvchi o'ziyurar mashina	2-4d ;
- Samosval avtomobillar	5-10d.

Betonli asos uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- Avtomobil yurishidagi kran 10 t	1d;
- Bortli avtomobillar 5 t	1d.

Poydevorli qurilma qatlami uchun tayyor bitum-gruntli aralashmadan quyidagilarda foydalaniladi :

- avtogradronator 35001	1d;
- avtogreyder	1d;
- o'zi yurar katkalar	1d;
- avtomobillar 5 t gacha	1d.

Qora shahal qurilmasining poydevori uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- yo'1 katkalari 8 t 1-3 d;
- asfaltobeton yotqizgichlar 1-3 d;
- traktor bilan yo'1 cho'tkasi 1d;
- yuk avtomobilari 5 t 1d.

Yirik va mayda donali asfaltbeton qurilmasining qoplamasidan foydalanish uchun:

- yo'1 katkalari 8 t 1 d;
- asfaltobeton yotqizgichlar 1 d;
- sug'orib yuvadigan mashinalar 1d;
- avtomobillar 5t gacha 1d.

### 2.1-jadval

#### Avtomobil dvigatellaridan ifloslangan moddalar tashlamalarining koeffitsiyentini chiqarish

Ifloslangan moddaning nomi	Kimyoviy formulasi	Dvigatel koeffitsiyentining emissiyasi $K_i$		Xavflilik koeffitsiyenti $r_i$
		Dizel kg/t	Karbyur. kg/t	
Oksid uglerod	CO	0,1	0,6	0,4
Chegaralangan uglevodorodlar	$C_nH_m$	0,03	-	0,7
Azot oksidi	NO. $NO_2$	0,04	0,04	16,5
Oltingugurt dioksidi	$SO_2$	0,02	0,02	20,0
Qurum	C	15,5 g/t	0,58 g/t	50,0
Benzopiren		0,32 g/t	0,28 g/t	12500,0
Qo'rg'oshin	Pb	-	0,30 kg/t	5000,0
Tortilgan moddalar		-	-	6,7
Noorganik chang		-	-	6,7

Ish jarayonidagi har bir texnik vositada yoqilg'i yonishi paydo bo'ladi va atrof-muhitga ifloslangan moddalar ajraladi. Ajralish ta'rifida chiqarish koeffitsiyenti alohida texnik vositalardan  $K_i$  bo'ladi, birlikda ifodalanadi kg/t yoki t/t. Chiqarish koeffitsiyentining o'lchami qaysidir avtomobilarning ishlangan gaz komponentlari uchun 2.2-jadvalda keltirilgan.

Alohida komponentning massasini bilish uchun umumiyl T yonilg‘ining sarfini bilishimiz kerak. Buning uchun ma’lumot beruvchi 3-jadvaldan yonilg‘i sarfining ish texnikasi birligini  $r_i$  va texnik vositaning  $t_i$  va  $T$  (kg) koeffitsiyentlarini hisoblaymiz:

$$T_i = r_i \cdot t_i \quad (2.1)$$

$r_i$  - yoqilg‘i sarflanishi (2.2-jadval);

$t_i$  - texnik vositasining ishlash vaqtini  $T$  (kg) dan hisoblaymiz.

Alohida komponentning chiqindi massasi  $M_i$ ,  $K_i$  emissiya koeffitsiyentiga hamda har bir avtomobilning yoqilg‘i sarfiga bog‘liq va quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$M_i = K_i \cdot T_i \quad (2.2)$$

$K_i$  - koeffitsiyentini hisoblashda 2.1- jadvaldan foydalaning;

$T_i$  - (2.1) formuladan hisoblanadi.

Zararli tashlamalarning zararli nisbiy hisobi  $Q$  bitta texnik vositaning ishlashidan quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Q = \sum M_i \cdot p_i \quad (2.3)$$

bu yerda  $p_i$  - xavflik koeffitsiyenti 2.1- jadvaldan aniqlanadi;

$M_i$  - (2.1-2.2) formula bo‘yicha hisoblanadi.

Umumiy zararning zararli summasini ko‘p texnik vositalar va har bir texnik vositalar orqali hisoblash 2.2-jadvalda ko‘rsatilgan.

$$Q_u = \sum Q_i \quad (2.4)$$

Zararni hisoblash pullik to‘lovda, so‘m.

$$T = 1,324 Q_u \quad (2.5)$$

2.2-jadval

Nº t/r	Mashinalar nomi	Yoqilg‘ining turi	Yoqilg‘ining sarflanish
-----------	-----------------	-------------------	----------------------------

			koeffitsiyenti $r_I$ , kg/s
1	Avtogreyder	Dizel	13,50
2	Avtosamosvallar	Dizel	1,06
3	Bortli avtomobil 10 t	Dizel	3,89
4	Buldozer 801 sek	Dizel	5,93
5	Buldozer 1081 sek	Dizel	7,50
6	O'ziyurar katok 6,5 t	Dizel	4,37
7	O'ziyurar katok 10 t	Dizel	4,37
8	Kompressor	Dizel	9,41
9	Avtomobil krani 16 t	Dizel	7,60
10	Avtomobil krani 10 t	Dizel	6,14
11	O'rmalovchi zanjirli kran 16 t	Dizel	3,64
12	Asfaltbeton yotqizg'ichlar	Dizel	4,58
13	Yo'l cho'tkasi traktor bilan	Dizel	6,55
14	O'ziyurar frezalar	Dizel	7,50
15	Avtoyuklagichlar	Dizel	4,78
16	Ekskavator 0,65 m <sup>3</sup>	Dizel	6,42
17	Ekskavator 0,50 m <sup>3</sup>	Dizel	1,66
18	Sug'orib yuvadigan mashinalar	Benzin	0,45
19	Avtogudronatorlar	Benzin	9,36
20	Avtomobil krani 6,3 t	Benzin	5,93
21	Markirovkali mashinalar	Benzin	-
22	Benzopila	Benzin	0,45

### 3-amaliy ish Yo'l-qurilish mashinalarining chiqindilarini hisoblash

Yo'l-qurilish mashinalari atrof-muhitni ifloslantiruvchi kuchli manba hisoblanadi. Yer qazish mashinalari va melioratsiya ishlari uchun o'rmalovchi zanjirli va pnevmog'ildirakli bir cho'michli ekskavatorlar, o'rmalovchi zanjirli traktorlarga tirkalgan buldozerlar (jumladan yumshat-kichli), avtogreyderlar, o'ziyurar skreperlar ishlatiladi. Yo'llar va aerodromlarni qurish va saqlash uchun mo'ljallangan mashinalarga quyidagilar kiradi: asfalt yotqizgichlar, traktorlarga tirkalgan yo'l frezalari, o'ziyurar g'altak moslamalari. Qurilish uskunalari va mashinalari: o'rmalovchi zanjirli va pnevmog'ildirakli kranlar, pnevmog'ildirakli bir cho'michli frontal yuklagichlar.

Atmosfera havosining  $YQM$  bilan ifloslanish darajasini aniqlash uchun NAMIda tashlamalarni aniqlash metodikasi ishlab chiqilgan.

*YQM* chiqindi gazlari tarkibida quyidagi moddalar mavjud:

*SO* – uglerod oksidi

*VOC* – uglevodorodlar  $CH_4$  ga qayta hisoblaganda;

*NO<sub>x</sub>* – azot oksidlari,  $NO_2$  ga qayta hisoblaganda;

*PM* – qattiq zarralar;

*SO<sub>2</sub>* – oltingugurt dioksidi;

*CO<sub>2</sub>* – uglerod dioksidi;

*CH<sub>4</sub>* – metan;

*NMVOC* – nometan uglerodlar;

$NH_4NH_3$  – ammiak;

*N<sub>2</sub>O* – azotning chala oksidi.

Atmosferaga *YQM* chiqarib tashlaydigan ifoslantiruvchi moddalarni hisoblashni soddalashtirilgan va detallashtirilgan hisobiy sxema bo‘yicha bajarish mumkin.

Soddalashtirilgan hisobiy sxemadan atmosferaga *YQM* tashlamalarini inventarizatsiya qilishda, yonilg‘i iste’moli haqida ma’lumotlar bo‘lgan holda foydalaniladi.

Topshiriq. *YQM* bazasidan ifoslantiruvchi moddalarining yillik tashlamalari hisoblab chiqilsin.

1. j-turdagi *YQM* 1-mash.soot- $M_{ij}$  chiqarib tashlaydigan ifoslantiruvchi modda quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$M_{ij} = g_i Q_j \quad (3.1)$$

bu yerda  $Q_j$  – i – turdagи *YQM* 1-mash.-soatda motor yonilg‘isini iste’mol qilishi kg/mash.-soat;

$g_i$  – 1kg yonilg‘i yonganda i – ifoslantiruvchi modda tashlamasi, g/kg.  $g_i$  – qiymatlari 3.1- jadvalda berilgan.

3.1- jadval

Dvigatel turi	Ifoslantiruvchi modda tashlamasi, g/kg								
	NO <sub>x</sub>	NMVOC	CH <sub>4</sub>	SO	NH <sub>3</sub>	N <sub>2</sub> O	RM	CO <sub>2</sub>	SO <sub>2</sub>
4-taktli dvigatel	48,8	7,08	0,17	30,0	0,007	1,3	5,73	3140	1,59
Izoh: VOCni aniqlash NMVOC va CH <sub>4</sub> ning yig‘indisi sifatida bajariladi									

Pasport ma’lumotlari bo‘yicha yonilg‘i iste’moli quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Q_j = N e_{Mj} \cdot K u_j \cdot g_{ej} \quad (3.2)$$

bu yerda  $N_{eMj}$  – shu markali mashina dvigatelining nominal quvvati,  $kVt$ ;

$Ku_j$ - shu mashina dvigatelining quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti, 3.2-jadval;

$g_{ej}$ - nominal quvvat rejimida dvigatelning solishtirma yonilg‘i sarfi,  $g/(kVt \cdot s)$ , 3.1-ilova.

3.2-jadval

Mashinalar nomi	$Ku$ – dvigatel quvvatidan foydalanish koeffitsiyenti
Ekskavatorlar	0,65
Buldozerlar	0,7
Avtogreyderlar	0,5
O‘ziyurar skreperlar	0,5
Asfalt yotqizg‘ichlar	0,5
O‘ziyurar g‘altakmoslamalari	0,7
Qurilish ishlarida foydalaniladigan traktorlar	0,6
Yuklagichlar	0,75
Boshqa mashinalar	0,6

2. Yillik tashlanmalar quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{bij} = 0.001 M_{ij} \cdot T_j, \quad (3.3)$$

$M_{ij}$  –  $i$ - hisobiy turdagи bitta  $YQM$ dan chiqarib tashlanadigan  $j$  – ifloslantiruvchi modda massasi,  $g/mash.-soat$ .

$T_j$  – hisobiy turdagи mashinaning yil davomida haqiqiy yoki hisobiy (me’yoriy) ishlash vaqtı, mash.-soat, 3.3-ilova bo‘yicha qabul qilinsin.

$j$  – ifloslantiruvchi moddaning, jami mashinalar (korxona parki, shahar, hudud va boshqalar) bilan baholanadigan yillik tashlanmasi yig‘indisi -  $M_p$  quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$M_n = 10^{-3} \sum_{j=1}^J \sum_{b=1}^B M_{bij}, \quad (3.4)$$

bu yerda  $M_{bij}$  - 3.3 formula bo‘yicha topiladi;

$V$  -  $j$  - hisobiy turdagи mashinalarning, jami mashinalar bilan baholanidigan soni;

$j$ -ko‘rib chiqiladigan jami mashinalar hisobiy turlarining soni.

### 3. Hisoblar natijalari jadval ko‘rinishida berilsin.

Variantlar:

3.3-jadval

№	YQM turi	YQM soni (V)	Zo na	№	YQM turi	YQM soni (V)	Zo na
1	Buldozer , 59kVt	2	1	11	O‘rmolovchi zanjirli traktor,78 kVt	2	2
	Yengil avtogreyder	1			Buldozer-yumshatgich, 121 kVt	1	
	O‘rmolovchi zanjirli traktor, 130 kVt	4			Bir cho‘michli ekskavator, 98 kVt	1	
2	Pnev mog‘ildirakli traktor, 56 kVt	3	3	12	Buldozer, 110 kVt	2	4
	Freza	2			Titratuvchi g‘altak, 110kVt	1	
	Buldozer , 98 kVt	2			Skreper , 150 kVt	1	
3	O‘rmolovchi zanjirli traktor, 90 kVt	4	2	13	Yengil avtogreyder	2	1
	Buldozer-yumshatgich, 121 kVt	2			O‘rmolovchi zanjirli traktor,90 kVt	1	
	O‘rtacha avtogreyder	2			Pnev mog‘ildirakli traktor, 45kVt	3	
4	Silliq g‘altak, 120 kVt	1	5	14	Freza	1	3
	O‘rmolovchi zanjirli traktor, 78 kVt	2			Buldozer, 69 kVt	2	
	Buldozer-yumshatgich, 78 kVt	1			O‘rmolovchi zanjirli traktor, 90 kVt	2	
5	Bir cho‘michli ekskavator, 65 kVt	1	7	15	Buldozer-yumshatgich, 132 kVt	1	5
	Buldozer, 110 kVt	2			O‘rtacha avtogreyder	1	
	Titratuvchi g‘altak, 60kVt	1			Pnevmatik kran 40 t, 50 kVt	1	
6	Buldozer, 110 kVt	2	5	16	Silliq g‘altak, 80 kVt	1	4
	Yengil avtogreyder	1			O‘rmolovchi zanjirli traktor, 120 kVt	2	
	O‘rmolovchi zanjirli traktor, 80 kVt	3			Buldozer-yumshatgich, 78 kVt	2	
7	Pnev mog‘ildirakli traktor, 38 kVt	4	4	17	Bir cho‘michli ekskavator, 90 kVt	1	6
	Freza	2			Buldozer, 76 kVt	2	
	Buldozer, 69 kVt	3			Asfaltbeton yotqizg‘ich, 45 kVt	1	

8	O'rmolovchi zanjirli traktor, 90 kVt	3	3	18	Pnevmod'ildirakli traktor	2	7
	Buldozer-yumshatgich, 132 kVt	1			Shibbalagich, 130 kVt	1	
	O'rtacha avtogreyder	1			O'rtacha avtogreyder	1	
9	Shibbalagich, 130 kVt	1	1	19	Titratuvchi g'altak, 60 kVt	2	4
	O'rmolovchi zanjirli traktor, 120 kVt	2			Buldozer, 110 kVt	1	
	Buldozer-yumshatgich, 78 kVt	2			Yengil avtogreyder	1	
10	Bir cho'michli ekskavator, 90 kVt	1	2	20	Buldozer-yumshatgich, 121 kVt	2	3
	Buldozer, 76 kVt	2			Pnevmod'ildirakli traktor, 28 kVt	3	
	Asfaltbeton yotqizg'ich, 45 kVt	1			Silliq g'altak, 80 kVt	1	

3.1-ilova  
(Ma'lumot beruvchi)

Mashinalar nomi	Hududiy zonalar uchun 1 mash.-soat ishga to'g'ri keladigan yonilg'i sarfi						
	1	2	3	4	5	6	7
Qurilishda ishlatiladigan o'rmalovchi zanjirli traktorlar, quvvati 59 kVt gacha	6,55	6,68	6,43	6,36	6,8	7,06	7,12
79 kVt gacha	7,49	7,63	7,34	7,27	7,78	8,06	8,14
96 kVt gacha	7,9	8,06	7,75	7,68	8,21	8,51	8,59
121 kVt gacha	10,9	11,1	10,7	10,6	11,3	11,8	11,9
132 kVt gacha	10,9	11,1	10,7	10,6	11,3	11,8	11,9
228 kVt gacha	21,6	22,0	21,2	21,0	22,5	23,3	23,5
Qurilishda ishlatiladigan pnevmog'ildirakli traktorlar, quvvati 18 kVt gacha	1,87	1,91	1,84	1,82	1,94	2,02	2,03
29 kVt gacha	3,22	3,29	3,16	3,13	3,35	3,47	3,5
40 kVt gacha	4,58	4,66	4,49	4,44	4,75	4,93	4,97
59 kVt gacha	5,2	5,3	5,1	5,05	5,4	5,6	5,65
158 kVt gacha	14,5	14,7	14,2	14,0	15,0	15,6	15,7
O'rmalovchi zanjirli kranlar, yuk ko'tarish qobiliyati 16 t gacha bo'lgan uskunani montaj qilishda ishlaganda	3,64	3,71	3,57	3,54	3,78	3,92	3,96
25 t	6,24	6,36	6,12	6,06	6,48	6,72	6,78
40 t	4,26	4,35	4,18	4,14	4,43	4,59	4,63
50-63 t	6,24	6,36	6,12	6,06	6,48	6,72	6,78

100 t	7,96	8,11	7,8	7,73	8,26	8,57	8,64
125 t	7,9	8,06	7,75	7,68	8,21	8,51	8,59
Pnev mog‘ildirakli kranlar yuk ko‘tarish qobiliyati 16 t gacha bo‘lgan uskunani montaj qilishda ishlaganda	5,2	5,3	5,1	5,4	5,6	5,6	5,6
25 t	4,37	4,45	4,28	4,24	4,54	4,62	4,7
40 t	6,76	6,89	6,63	6,56	7,02	7,15	7,28
63 t	7,28	7,42	7,14	7,07	7,56	7,7	7,84
100 t	15,1	15,4	14,8	14,6	15,7	16,0	16,2
O‘rmalovchi zanjirli bir cho‘michli ekskavatorlar, cho‘michning sig‘imi 0,4 m <sup>3</sup>	4,28	4,36	4,2	4,16	4,44	4,6	4,64
0,50 m <sup>3</sup>	6,42	6,54	6,3	6,24	6,66	6,9	6,96
0,65 m <sup>3</sup>	7,17	7,3	7,04	6,97	7,44	7,7	7,77
1,00 m <sup>3</sup>	9,68	9,86	9,5	9,42	10,0	10,4	10,5
1,25 m <sup>3</sup>	13,3	13,6	13,1	13,0	13,8	14,3	14,4
1,60 m <sup>3</sup>	15,7	16,0	15,4	15,3	16,3	16,9	17,0

3.2-ilova  
(Ma’lumot beruvchi)

Mashinalar nomi	Hududiy zonalar uchun 1 mash.-soat ishga to‘g‘ri keladigan yonilg‘i sarfi						
	1	2	3	4	5	6	7
Pnev mog‘ildirakli bir cho‘michli ekskavatorlar, cho‘michning sig‘imi 0,25 m <sup>3</sup>	4,71	4,8	4,62	4,58	4,88	5,06	5,1
0,4 m <sup>3</sup>	4,39	4,47	4,31	4,26	4,55	4,72	4,76
0,5 m <sup>3</sup>	6,31	6,43	6,2	6,14	6,55	6,79	6,84
0,65 m <sup>3</sup>	6,36	5,48	6,25	6,19	6,6	6,84	6,9
Buldozerlar, quvvati 37 kVt	4,26	4,35	4,18	4,14	4,43	4,59	4,63
59 kVt	5,93	6,04	5,81	5,75	6,16	6,38	6,44
79 kVt	7,49	7,63	7,34	7,27	7,78	8,06	8,14
95 kVt	10,7	10,9	10,5	10,4	11,1	11,5	11,6
118 kVt	11,4	11,7	11,2	11,1	11,9	12,3	12,4
121 kVt	11,5	11,7	11,3	11,2	12,0	12,4	12,5
132 kVt	13,1	13,4	12,9	12,4	13,6	14,1	14,2
243 kVt	21,6	22,0	21,2	21,0	22,4	23,2	23,4
Traktorga tirkalgan buldozer-yumshatkichlar,	9,78	9,96	9,59	9,49	10,2	10,5	10,6

quvvati 79 kVt							
121 kVt	14,9	15,2	14,6	14,4	15,4	16,0	16,1
132 kVt	17,1	17,4	16,7	16,6	17,7	18,4	18,5
O‘ziyurar skreperlar (g‘ildirakli shatakchilarga tirkalgan), cho‘michning sig‘imi 8 m <sup>3</sup>	16,7	17,1	16,4	16,3	17,4	18,0	18,2
10 m <sup>3</sup>	17,6	17,9	17,2	17,1	18,3	18,9	19,1
15 m <sup>3</sup>	21,3	21,7	20,9	20,7	22,1	23,0	23,2
Yengil avtogreyderlar, 6,2 kVt	7,49	7,63	7,34	7,27	7,78	8,06	8,14
O‘rtacha avtogreyderlar, 99 kVt	13,5	11,8	13,3	13,1	14,0	14,6	14,7
O‘zyurar titratuvchi yo‘l g‘altakmoslamalari, 2,2t	3,95	4,03	3,88	3,84	4,1	4,26	4,29
Silliq g‘altak 8 t	4,37	4,45	4,28	4,24	4,54	4,7	4,75
Silliq g‘altak13 t	4,42	4,45	4,34	4,29	4,59	4,76	4,8
Pnev mog‘ildirakli 16 t, 30 t	9,36	9,54	9,18	9,09	9,72	10,1	10,2
Asfaltbeton yotqizg‘ichlar	3,64	3,71	3,57	3,54	3,78	3,92	3,96
Traktor bazasidagi shibbalagich, T-130	17,4	17,5	17,2	16,9	18,0	18,7	18,9
Traktor bazasidagi osma yo‘l frezalari 121,5 kVt	11,7	11,91	1,4	11,3	12,1	12,5	12,7

3.3-ilova  
(Ma’lumot beruvchi)

№	Mashinalar nomi	Mashinalarning yillik ish rejimi, 2- ilovadagi 1-jadval bo‘yicha mash.- soat	Tuzatish koeffitsiyenti				
			Hududiy zonalar 2- ilova jadvali bo‘yicha				
			2	3	4	5	6
1	Avtogreyderlar	1500	1,02	0,98	0,97	1,04	1,08
2	Asfalyotqizg‘ichlar	1500	(barcha mashinalar uchun bir xil)				
3	Buldozerlar	2300					

4	O‘ziyurar g‘altaklar	1500						
5	O‘rmalovchi zanjirli va pnevmoq‘ildirakli g‘altaklar	2300						
6	Yuklagichlar	2300						
7	Skreperlar							
8	Bir cho‘michli ekskavatorlar, cho‘michning sig‘imi $0,25\text{ m}^3$	2000						
9	Bir cho‘michli ekskavatorlar, cho‘michning sig‘imi $0,25\text{ m}^3$ dan yuqori	2300						
10	Ko‘p cho‘michli ekskavatorlar	2300						
11	Boshqa mashinalar	2300						

#### 4-amaliy ish

#### Atmosferadagi chiqarilma belgilangan me'yordan oshganda jarima mablag‘ini hisoblash

Atmosferani muhofaza qilish haqidagi davlat qonuniga riox qilinmasa, ruxsat etilgan chegaraviy chiqarilma va davlat tabiat qo‘mitasi va davlat andoza tashkilotlari tomonidan belgilangan me’yorlari buzilganligi, belgilangan shartlari bajarilmaganligi tufayli keltirilgan zararlarni qoplash uchun jarima solinadi. Davlat korxonalarini uchun jarima mablag‘ini to‘lash manbai jamoaning xo‘jalik hisobidagi daromadidir. Jarima mablag‘i tabiatni muhofaza qilish mahalliy fondlariga o‘tkaziladi va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish ishlariga ishlataladi.

Jarima mablag‘i har bir ifoslantiruvchi modda bo‘yicha joriy yilda belgilangan zararli moddalar chiqarilmasining me’yori oshib borishi miqdoriga bog‘liq. Jarima miqdorini aniqlash uchun ikki mezon va unga muvofiq ikki usul belgilanadi. Birinchi mezonga muvofiq korxonalar chiqarilmasi me’yorining ortishi 1,3 dan 5 martagacha, ikkinchi mezon

bo'yicha 5 dan 30 martagacha bo'lishi lozim.

Birinchi mezonga muvofiq jarima mablag'i moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy rivojlantirish mablag'iga nisbatan foiz hisobida quyidagi ifoda bilan belgilanadi:

$$M_I = M_{mr} + M_{ir} \quad (4.1)$$

bunda  $M_{mr}$  - moddiy rag'batlantirish mablag'i, ming so'm,  $M_{ir}$  - ijtimoiy rag'batlantirish mablag'i, ming so'm. Birinchi mezon shartlari uchun  $H_I$  to'lanadigan jarima foizi vositasi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$H_I = (M_a - M_{mo}) / (M_{ml} - M_{mo}) \cdot 100, \% \quad (4.2)$$

bunda  $M_a$  - amalda chiqariladigan o'rtacha kundalik nisbiy chiqarilmaning vazni, g/sek nazoratli o'lchash vaqtida aniqlanadi,  $M_{ml}$  - birinchi mezon yuqori bo'lgani holdagi chiqarilma vazni, g/sek,  $M_{mo}$  - birinchi mezon kichik qiymatda bo'lganidagi chiqarilma vazni, g/sek.

Ikkinci mezon shartlarida jarima mablag'i quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$M_2 = (M_{mr} + M_{np} + M_{ix}) \cdot N_2 / 100\%, \quad (4.3)$$

bu yerda  $M_{ix}$  - ish haqi mablag'i,  $N_2$  - foizi vositasi (4.4) ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$H_2 = (M_a - M_{ml}) / (M_{m2} - M_{ml}) \cdot 100, \% \quad (4.4)$$

bu yerda  $M_{m2}$  - ikkinchi mezon yuqori bo'lganidagi chiqarilma vazni, g/s.

Korxonadan birinchi marotaba  $M_I$  hisobi uchun jarima talab etilsa, barcha mablag'ning rejadagi o'rtacha oylik o'lchami qabul qilinadi.  $M_I$  hisobi bo'yicha ikkinchi marotaba jarima solinganida mablag'larning rejadagi chorakli o'lchami qabul qilinadi.

Misol. "A" korxonadagi qandaydir chiqarilmaning belgilangan me'yori 40 g/sek tashkil etadi.  $M_a$  amaldagi hisoblangan chiqarilma-ning o'rtacha kundalik vazni 68 g/s, ya'ni belgilangan me'yordan 1,7 marta ortadi va bu birinchi mezonga muvofiqli.

Jarima mablag'i masalaning birinchi shartlariga ko'ra hisoblansin.

Yechilishi. Birinchi mezonning eng kichik qiymatiga muvofiq sharoitda chiqarilma vazni:  $M_{mo}=1,3 \cdot 40=52$  g/ni tashkil etadi.

Birinchi mezonning eng yuqori qiymatiga muvofiq sharoitda chiqarilma vazni  $M_{m1}=5 \cdot 40=200$  g/s tashkil etadi.

“A” korxona uchun jarima solish foizi

$$H=68-52/200-52 \times 100=10,8\% \quad (4.5)$$

Korxonaning ijtimoiy rag‘batlantirish mablag‘i 6970 ming so‘m, moddiy rag‘batlantirish mablag‘i 4020,7 ming so‘m bo‘lganida jarima mablag‘i:  $[(4020,7+6970) \cdot 10,8] / 100=1187$  ming so‘mni tashkil etadi.

## 5,6 - amaliy ish

### **Asfaltbeton zavodidagi ishlab chiqarish jarayonlaridan ifloslantiruvchi moddalarining chiqarilmalarini hisoblash**

*Asfaltbeton zavodining bir qancha ishlab chiqarishlaridan zararli moddalar tashlamalarini hisoblash*

Asfaltbeton zavodining (ABZ) ishlab chiqarishlaridan atrof-muhitga ta’siri ishlatalidigan materiallar va ularning qayta ishlash usullariga bog‘langan.

Asfaltbeton zavodining hududida mineral materiallarni va gudronni tayyorlash sexlari, toshlarni maydalash qurilmalari, qozonxona va boshqa sexlar joylashgan.

Ushbu hamma uchastkalar atmosfera havosini chang, qurum, azot dioksidi, karbonat oksidi, oltingugurt dioksidi, kul bilan ifloslantiradilar.

**1-topshiriq:** Toshlarni maydalash, quritish, aralashtirish qurilmalaridan tashlanmalar miqdorini hisoblang.

### ***Hisoblash tartibi***

#### **1. Chang tashlamalari**

*1.1. Asfaltbeton quritish, aralashtirish qurilmalaridan chang tashlamalari*

$$M_m = 3600 \cdot 10^6 \cdot t \cdot V \cdot S, t/yil \quad (5.1)$$

bu yerda:  $t$  – qurilmalarning yildagi ishlash vaqtisi, soat;  
 $V$  – chiqadigan gazlar hajmi,  $m^3/s$  (5.2-jadval);

$S$  – tozalashga kiradigan gazdagi chang konsentratsiyasi,  $\text{g}/\text{m}^3$  (5.2-jadval).

*Bir martali eng katta tashlanma:*

$$G = V \cdot S, \text{ g/s} \quad (5.2)$$

Chiqadigan gazlarda tozalashdan keyin chang konsentratsiyasi:

$$C_l = S (100 - \eta) \cdot 10^{-2}, \text{ g/m}^3 \quad (5.3)$$

bu yerda:  $\eta$  - chang-gazli aralashmaning tozalash koeffitsiyenti, % (5.2-jadv.)

*1.2. Mineral materiallarning (kum, shag‘al) lentali transportyor bilan tashish paytida transportyorning har bir metrdan chang tashlanmasi (bir martali eng katta tashlanma).*

$$G_T = W_s \cdot l \cdot \gamma \cdot 10^3, \text{ g/s} \quad (5.4)$$

bu yerda:  $W_s$  – changni solishtirma uchirib ketilishligi ( $W_s = 3 \cdot 10^{-5}$   $\text{kg}/(\text{m}^2 \cdot \text{s})$ );

$l$  - transportyor lentasining kengligi, m;

$\gamma$  - kon massasini maydalash ko‘rsatkichi (lentali transportyorlar uchun  $\gamma=0,1$  m).

*Jami chang tashlanmasi:*

$$M_p = 3600 \cdot 10^{-6} \cdot t_1 \cdot G_T, \text{ t/yil} \quad (5.5)$$

bu yerda:  $t_1$  – transportyorning yildagi ishlash vaqtisi, soat.

*1.3. Mineral materiallarning yuklash, tushirish va saqlash paytida chang tashlanmalari:*

$$\beta = \beta_{shag‘al} \cdot \beta_{qum} \cdot Y \cdot K_{Iw} \cdot K_{zx} \cdot 10^{-2} \quad (5.6)$$

bu yerda:  $\beta$  - materialning chang shaklida yo‘qotish koeffitsiyenti,  $\beta_{shag‘al} = 0,03$ ;  $\beta_{qum} = 0,05$ ;

$Y$  - materialning yo‘qotilishi, % (5.3-jadval bo‘yicha tanlab olinadi);

$Q$  - qurilish materialning massasi, t/yil;

$K_{Iw}$  - material namligini hisobga oluvchi koeffitsiyent, (5.4-jadvaldan

tanlab olinadi);

$K_{zx}$  – saqlash sharoitlarini hisobga oluvchi koeffitsiyent, (5.5-jadvaldan xohlagan bittasi olinadi).

*Bir martali eng katta tashlanmaning miqdori:*

$$G_c = \frac{M_c \cdot 10^6}{3600 \cdot n \cdot t_2}, \text{ g/s} \quad (5.7)$$

bu yerda:  $n$  – ABZning yildagi ishchi kunlar soni;

$t_2$  – kundagi ishlash vaqt, soat ( $t_2 = 8$  soat yoki  $t_2 = 12$  soat yoki  $t_2 = 18$  soat tanlang)

#### 1.4. Toshlarni maydalash va ajratish qurilmalardan chang tashlanmalari

Toshlarni maydalash va ajratish qurilmalarning ishlash paytidagi yili chang tashlanmalari (5.1) formula bo'yicha aniqlanadi. Hamma kerakli ko'rsatkichlar 5.1-jadvalda ko'rsatilgan.

Istalgan maydalanadigan materialning turini tanlab maydalash, ajratish va transportlash paytidagi chang tashlanmalarini aniqlang.

*1.5. Jami yildagi chang tashlanmasi:*

$$M_j = \sum M \quad (5.8)$$

5.1-jadval

Chiqindilar manbai	Ifloslangan havo hajmi, m <sup>3</sup> /ch	Chang konsentratsiyasi, g/m <sup>3</sup> (S)
1. Maydalash		
Lunjli maydalagich (900×1200×130) otilib chiqilgan jinslari	14000	13
karbonat jinslari	14000	12
Konussimon maydalagich (KOD 1200; KOD 1750) otilib chiqilgan jinslari	8500	25
karbonat jinslari	8500	20
Rotorli maydalagich otilib chiqilgan jinslari	18000	18
karbonat jinslari	18000	34
2. Ajratish: Ajratgich GIL-52		
otilib chiqilgan jinslari	3500	10
karbonat jinslari	3500	11

3. Tashish: Konveyer otilib chiqilgan jinslari karbonat jinslari		
	3500	5,5
	3500	7,0

## Chiqindilar manbalarining texnik xarakteristikasi

5.2-jadval

№	Parametr	Asfaltni aralashtirish qurilmalarining parametrlari											
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	Asfaltni aralashtirish qurilmalari ning turlari	DS-168	DS-1683	DS-185 (DS-1852, DS-1854, DS-1859)	D-597 (tipa)	D-597-A (D-508-2A)	DS-117-2K (DS-117-2E)	D-617	D-617-2	D-645-2	Teltomat 100 MA 5/3-5	DS-158	Quritish barabani CM-168 bilan sharli tegirmon OM-136
2	Ish unumi, t/soat	130-160	130-160	42-48	25	25	32-42 (25-30)	50	50	100	100	50	
3	Gazni tozalash qurilmalari ning xarakteristikasi	1256 mm diametrli siklon, 10ta siklon STSN-40 diametr 1000 mm, nam inersion changni ushlab olgich	1256 mm diametrli siklon, 10ta 1000 mm diametrli siklon STSN-40, Venturi skrubberi	700mm diametrli siklon, 4 ta 1000 mm diametrli tiklon STSN-40, Venturi skrubberi	4ta500 mm dia- metrli siklon TSN-15, "Svetlana" barbotaj changni ushlag'ich	800 mm dia- metrli siklon SDK TSN-33, nam siklon SIOT	4 ta 800 mm dia- metrli siklon SDK-TSN-33, rotoklon	800 mm dia- metrli siklon TSN-15, rotoklon	8ta650 mm dia- metrli siklon TSN-15, nam siklon SIOT	12ta 650 mm dia- metrli siklon TSN-15, A-5-S, roto- klon	Changni ushlab olgich Ye6 A-5-S, 4 roto- klon	8 ta 650 mm dia- metrli siklon TSN-15, Ventu-ri batareyasi	2ta450 mm dia- metrli siklon TSN-15, nam siklon SIOT
